

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.14/30.12.2019.I.84.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XAMDAMOV SHAXZOD ILXOM O‘G‘LI

**QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ JOYLARIDA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YO‘LLARI**

08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 338.242 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xamdamov Shaxzod Ilxom o‘g‘li

Qashqadaryo viloyati qishloq joylarida kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari.....3

Хамдамов Шахзод Илхом угли

Пути снижения бедности в сельской местности Кашкадарынской области.....27

Khamdamov Shakhzod Ilxom o‘g‘li

Ways to reduce poverty in rural areas of Kashkadarya region.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.14/30.12.2019.I.84.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XAMDAMOV SHAXZOD ILXOM O‘G‘LI

**QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ JOYLARIDA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YO‘LLARI**

08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/iqt1729 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.imrs.uz) va "Ziynet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nazarova Fotima Hakimovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Valiyev Bobur Botirovich**
Fan doktori (DSc), professor


Gafurov Bunyod Baxtiyarovich, PhD

Yetakchi tashkilot: Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini ilmiy rivojlantirishning asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.14/30.12.2019.I.84.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" 04 soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33-uy Tel.: +998 (71) 244-01-80, e-mail: info@imrs.uz

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33-uy Tel.: +998 (71) 244-01-80, e-mail: info@imrs.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 -yil " " kuni tarqatildi.
(2025 yil "18" 04 dagi raqamli reyestr bayonnomasi).



T.M. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.M.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

D.M.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b., iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Kambag'allik dunyoning turli hududlarida yashayotgan aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tirof etiladi va uni qisqartirish amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2,1 milliarddan ortiq aholi o'ta qashshoqlik sharoitida yashamoqda. Ularning 75 foizga yaqini qishloq joylarida istiqomat qiladi. BMT Taraqqiyot dasturi hisobotida "...2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, dunyo mamlakatlari va hududlarida kambag'allik darajasini 2 barobar kamaytirish ko'zda tutilgan".¹

Ayni paytda dunyodagi noaniqlik va keskinlik sharoitida kambag'allikni hamda ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy va amaliy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hududlarning quyi bo'g'ini bo'lgan qishloq joylarida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida zamonaviy usullardan foydalangan holda kambag'allikni qisqartirishning innovatsion va nostandart usullarini aniqlashga e'tibor kuchaygan. Jumladan, qishloq joylarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kambag'allik darajasini aniqlash uslublarini takomillashtirish, mavjud mahalliy va tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlar o'rtasidagi kambag'allik darajasidagi tafovutlarni, sabab va oqibatlarni o'rganish, davlat tomonidan aholini qo'llab-quvvatlashning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda hududlarni barqaror rivojlantirishda ularning quyi bo'g'ini bo'lgan viloyat tumanlari va mahallalarida kambag'allikni qisqartirishga alohida urg'u berilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida kambag'allikni 2026-yilgacha 2,0 marta, 2030-yilgacha esa keskin kamaytirish maqsadli vazifa sifatida qabul qilingan. "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dastur ijrosini ta'minlashda tuman va shaharlar hokimliklari shaxsan mas'ul va javobgar bo'ladi".² Ushbu ustuvor vazifa va mavjud nomutanosibliklarni hisobga olgan holda tumanlar kesimida kambag'allik darajasini qisqartirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish va aholi farovonligini oshirish o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmoni³, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi va 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi, PQ-389-son

¹ BMT Taraqqiyot dasturi. Tahliliy ma'lumotnoma. 2023-yil 11-iyul.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabr, PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Toshkent shahri. 2024-yil.

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6493069?ONDATE=14.06.2023>

“Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2023 yil 3-fevraldagi PQ-44-son “2023 — 2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari⁵, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprel 201-son “2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori⁶ va boshqa hududlarda kambag‘allikni qisqartirishga bag‘ishlangan rasmiy hujjatlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududiy kambag‘allik va uni qisqartirishning nazariy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan B.Rovntreye⁷, E.Bebington⁸, H.Himanshu⁹, A.Sen¹⁰, M.Ravallion¹¹, T.Suri¹², C.Rahman¹³, Y.Li¹⁴, U.Kumar¹⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan Y.Yegorov¹⁶, S.Guriyev¹⁷, O.Lugovoy¹⁸,

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 dekabrda, PQ-389-son “Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/en/docs/6693577>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprel, 201-son “2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5971265>

⁷ Rowntree, B.S. Poverty: a study of town life, Macmillan, London, 1901,pp.119-20.;

⁸ Bebbington, A. (1999). Poverty and development: alternate paths to overcoming regional poverty. IDS Bulletin, 30(2), p.11-22.;

⁹ Himanshu. (2011). Understanding poverty across regional and rural-urban differences in India. Economic and Political Weekly, 46(32),p.14-18.;

¹⁰ Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.;

¹¹ Ravallion, M. (2004). Divergences in poverty reduction across countries: evidence and explanations. World Bank Economic Review, 18(3), p.387-407.;

¹² Suri, T., & Jack, W. (2016). The long - run poverty and gender impacts of mobile money. Science, 354 (6317), p.1288-1292.;

¹³ Rahman, S. (2017). NGOs and development: History and impact on poverty reduction. Journal of Business and Management, 19 (p.647-54).;

¹⁴ Li, Y., Ye, C., & Wu, X. (2014). Poverty alleviation and economic development of poor areas in China: An empirical study of Guangxi province. Journal of Applied Economics and Business Research, 4 (3), p. 145-160.

¹⁵ Utpal Kumar De, Manoranjan Pal, Premananda Bharati. “Inequality, Poverty and Development in India”. India Studies in Business and Economics ISSN 2198-0020 (electronic) Library of Congress Control Number: 2017950277. ©Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2017. p.xxiii.

¹⁶ Юрий Егоров: «Борьба с бедностью в странах с переходной экономикой» (2002 г.) и «Экономические реформы и борьба с бедностью в Содружестве Независимых Государств» (2005 г.);

¹⁷ Сергей Гуриев: «Бедность и неравенство в переходный период в России» (2004 г.) и «Неравенство и бедность в России: данные лонгитюдных исследований» (2012 г.);

¹⁸ Олег Луговой: «Бедность в Беларуси: измерение и анализ» (2003 г.) и «Режимы социального обеспечения в Беларуси» (2011 г.);

T.Karabchuk¹⁹, A.Selyanin²⁰, T.Paniotto²¹, V.Ivanter²², T.Maleva²³ va boshqalar kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan. Aholining ish bilan bandligi, turmush darajasi va farovonlikni rag‘batlantirish kabi ijtimoiy jihatlar hamda kambag‘allik masalalarini yechishga imkon yaratish, hududiy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil qilish, mahalliy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari Q.X.Abdurahmonov²⁴, T.M.Axmedov²⁵, D.M.Karimova²⁶, A.V.Mamatqulov²⁷, B.B. Valiyev²⁸, S.P.Qurbonov²⁹, Sh.I.Mustafaqulov³⁰, M.F.Mahmudov³¹, Sh.H.Nazarov³², F.T.Egamberdiyev³³, N.J.Sotvoldiyev³⁴, B.B.Gafurov³⁵, I.O.Yakubov³⁶ kabi o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng o‘rin olgan. Biroq, viloyat va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik, qishloq joylarini o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan muammolar keng tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi: Dissertatsiya ishi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” mavzusidagi ilmiy reja (2022-yil) asosida bajarilgan.

¹⁹ Татьяна Карабчук: «Социальная помощь и сокращение бедности в Украине» (2008 г.) и «Трансформация социальной помощи в Украине» (2014 г.);

²⁰ Алексей Селянин: «Пространственные модели бедности в России» (2006 г.) и «Территориальная бедность в Российской Федерации: уровни, сдвиги и дифференциация» (2012 г.);

²¹ Татьяна Паниотто: «Бедность и социальная интеграция в Молдове» (2007 г.) и «Неравенство, бедность и социальная изоляция в переходный период: данные из Украины, 1990-2006 гг.» (2009 г.);

²² Виктор Ивантер: «Реформирование системы социальной помощи малоимущим в Российской Федерации» (2005 г.) и «Неравенство доходов и бедность в России» (2008 г.);

²³ Татьяна Малева: «Влияние социальных пособий на динамику бедности в России» (2004 г.) и «Социальная интеграция и динамика бедности в современной России» (2012 г.);

²⁴ Абдурахмонов Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik.-T.: “Fan” nashriyoti, 2019 y.

²⁵ T.M.Axmedov, R.R.Xasanov, G.A.Alimova. “O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashning milliy mezonlari”. Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti rasmiy veb sayti ma’lumotlari. URL: <https://ifmr.uz/files/publications/ru/157227.pdf>.

²⁶ D.M. Karimova. “Portret bednix semey: regionalniye aspekti. Institut prognozirovaniya i makroekonomicheskix issledovaniy.URL: <https://imrs.uz/publications/poverty-reduction/poor>

²⁷ A.V. Mamatqulov . “Foreign direct investment and key growth theories”. Экономика: анализы и прогнозы, 2021 - elibrary.ru.

²⁸ B.B.Valiyev.”O‘zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi”. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –T.:2021 y.

²⁹ S.P. Qurbonov. “Aholining unumli va mahsuldor bandligini oshirish asosida kambag‘allikni qisqartirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi. Toshkent 2021 y.

³⁰ Mustafaqulov SH.I. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. 72 – bet.

³¹ M.F. Maxmudov. “Hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlari (Qashqadaryo viloyati misolida)”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi.

³² Nazarov SH.H. O‘zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini.; Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2016. - 5 b.;

³³ T.Эгамбердиев. “Социально-экономическое положение территорий: международный опыт и перспективы развития”. Монография. Казань–2019. <https://www.researchgate.net/profile/Nozim-Muminov/publication/355105179>

³⁴ N.J.Sotvoldiyev. “Farg‘ona mintaqasida oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirish”. Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T.:2021 y.

³⁵B.B.Gafurov. “Mahallabay ishlash – hududlarda kambag‘allikni qisqartirish vositasi sifatida (Surxondaryo viloyati misolida)”. Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T.:2023 y.

³⁶ Yakubov I.O. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik -T.: TDIU, 2016. 9

Tadqiqotning maqsadi: Qashqadaryo viloyati qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlarda kambag'allikni qisqartirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash omillarini aniqlash;

qishloq joylarida kambag'allikka qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari va uni baholash usullarini tahlil qilish;

viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va tizimli muammolarni aniqlash;

tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash;

guruhlarga ajratish usuli orqali kambag'allikni baholash va mavjud tafovutlarni tumanlararo kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash; viloyat va tumanlarda kambag'allik darajasini qisqartirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida Qashqadaryo viloyati tumanlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo viloyati va uning tumanlarida kambag'allik bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada dialektik, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, korrelyatsiya va regressiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash va ekonometrik prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

viloyat tumanlaridagi kam ta'minlangan oilalarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish maqsadida asbob-uskunalar va xomashyo xarid qilish bo'yicha xarajatlarni qoplashlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish asoslangan;

viloyatda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan Dehqonobod tumanida bodomzorlar barpo qilish, kaliy zavodi shoxobchalarini tashkil qilish, Ko'kdala tumanida chorvachilikni (echkichilik) va uning mahsulotlarini qayta ishlash asosida junni tayyorlash sexini qurish, Chiroqchi tumanida ipak yetishtirish va undan shoyi matolar ishlab chiqish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish orqali hududiy bandlikni rag'batlantirish natijasida kambag'allikni qisqartirish taklif etilgan;

Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi tumanlariga turizm salohiyatidan samarali foydalanish va kambag'allikni qisqartirish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 50 mln. dollar kredit mablag'lari 5 foiz imtiyozli stavkada ajratish orqali sayyohlik qishloqlari, uy-lagerlar, oilaviy mehmon uylari tashkil etish asosida kambag'al oilalarda qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratilishi asoslangan;

viloyat va tumanlarining o'ziga xos salohiyatini inobatga olgan holda, 2030-yilgacha kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyat tumanlarida kambag'allik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va imkoniyatlar aniqlangan;

qishloq tumanlarida kambag'allik va sanoat o'rtasidagi bog'liqlik asosida sanoat kambag'alligini aniqlashning usullari taklif etilgan;

tumanlarni kambag'allik darajasi asosida 3 ta guruhga ajratgan holda, uni qisqartirishning chora-tadbirlari asoslangan;

tumanlarda kambag'allik darajasidagi yuqori tafovutni kamaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlarga tayanadi va tavsiya etilgan tavsiyalarning ishonchliligini ta'minlaydi. Ushbu tavsiyalar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalish va dasturlarga mos keladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari rasmiy statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada yoritilgan miqdoriy usullar va ilmiy xulosalardan hududiy aholi farovonlik darajasini tahlil qilish hamda ularning o'zgarishlarini baholash, olingan natijalardan hududiy kambag'allik darajasini qisqartirishning uzoq muddatli istiqbollari belgilash va bu borada muhim qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Viloyat qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha berilgan takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

kam ta'minlangan oilalarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga asbob-uskunalar va xomashyo xarid qilish bo'yicha xarajatlarni qoplashlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil, 20-aprel 201-son) Qarorning 1-ilovasini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorning (2023-yil 14-dekabr 389-son), 1-ilovasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-sentabr 01/00-03/26-9160-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda qo'llash 2024-2025-yillarda viloyatning yalpi hududiy mahsulotini tegishli 5,8 va 6 foizgacha, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini esa 8 va 8,5 foizgacha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini 4,5 va 5 foizgacha, bozor xizmatlari hajmi 14 va 15 foizgacha o'sishini ta'minlash ortidan tumanlardagi kambag'allik darajasini 10,3 foizgacha qisqartirish imkonini beradi;

viloyatning kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan Ko'kdala, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlari qishloq xo'jaligini raqobat afzalliklari va sanoat korxonalarini shaxobchalarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2024-yillarda Qashqadaryo

viloyatining Ko'kdala tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022-yil 3-noyabr, 640-son) qarorining 1 va 2 ilovalarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 13-sentabr 01/00-03/26-9160-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amalga amaliyotda qo'llash kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan tumanlarda, mahalliy salohiyatdan samarali foydalangan holda kambag'al oilalar sonini keskin qisqartirish uchun turtki vazifasini bajaradi;

qishloq tumanlarida turizm salohiyatidan samarali foydalanish va kichik sanoat korxonalarini ustuvor rivojlantirish asosida kambag'allik darajasini qisqartirish uchun imtiyozlar berish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risi da"gi (2023-yil 14-dekabr, 389-son) Qarorni 1-ilovasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 13-sentabr 01/00-03/26-9160-son ma'lumotnomasi).

Mazkur taklif viloyat qishloq joylarida turizm va kichik sanoat korxonalarini mavjud salohiyat va imkoniyatlar asosida tashkil qilish orqali kambag'al oilalarning bandligini ta'minlash va daromadlarini ko'paytirishga olib keladi;

viloyat va uning qishloq tumanlarida 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirishning maqsadli prognoz parametrlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 20-aprel 201-son) qarorining 1-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 13-sentabr 01/00-03/26-9160-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan kambag'allikni qisqartirishni maqsadli parametrlariga erishishni ta'minlash viloyat va tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, oilalar daromadlarini oshirishga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 162 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududlarda kambag'allikni qisqartirishning ilmiy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida milliy va hududiy kambag'allik darajasining asosiy farqlari, qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirishning mezonlari, sabablari, omillari tahlil qilingan. Shuningdek hududiy kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning mohiyati, sanoat kambag'alligi kategoriyasi, hududiy kambag'allikni kamaytirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Qishloq tumanlari ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, o'zining maqsad va vazifalariga ega. Bevosita aholi yashayotgan qishloq tumanlari va uning mahallalari mamlakat hududiy tizimini eng quyi bosqichi hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida qishloq tumanlarining o'rnini va ahamiyati islohotlarni bevosita natijalarini baholash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'lum obektiv sabablarga ko'ra (kadrlar salohiyati, talabni nisbatan kamligi, infratuzilmani talab darajada emasligi, yer va suv muammolarini mavjudligi va boshqalar) qishloqlarda kambag'allikni qisqartirish shaharlarga nisbatan ko'proq davlat tomonidan yordamga va qo'llab-quvvatlashga muhtojdir.

Kambag'allik murakkab muammo bo'lib, unga turli omillar, jumladan, hududiy va individual omillar ta'sir ko'rsatadi. Hududiy kambag'allik omillari orasida iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qligi, infratuzilmaning yetarli emasligi, ta'limdan foydalanishning cheklanganligi va sog'liqni saqlash tizimining noadekvatligi kiradi. Individual kambag'allik omillari past ta'lim darajasi, ish qobiliyatining yetarli emasligi, sog'liq muammolari va ijtimoiy kapitalning yetishmasligini o'z ichiga oladi (1-rasm).

Tadqiqot ishida milliy kambag'allik va hududiy kambag'allik o'rtasidagi farqlar, kambag'allikning xalqaro va milliy chegaralari, hududlarda kambag'allikni aniqlash mexanizmlari va uni qisqartirish va oldini olish bo'yicha turli yondashuvlar, hududiy kambag'allikni qisqartirishda aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishning o'rnini va omillari ilmiy va nazariy jihatdan o'rganilgan.

Tadqiqotda milliy milliy va hududiy kambag'allik, sanoat kambag'alligi atamalariga mualliflik ta'rifi berilgan. Xorij va mamlakat olimlarini turli qarashlarini tahlil qilgan holda quyidagi ta'riflar taklif etilgan.



1-rasm. Kambag'allikka sabab bo'luvchi omillar va ularning o'zaro bog'liqlik tizimi³⁷

Qishloq kambag'alligi - qishloq joylarida yashovchi, munosib turmush darajasi uchun zarur bo'lgan yetarli daromad, resurslar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan odamlarning ahvolini anglatgan holda ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari cheklanganligi bilan ajralib turadi.

Sanoat kambag'alligi – qishloq joylarida sanoat ishlab chiqarishi nisbatan rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'lgan, beqaror, kam maoshli sohalarda band bo'lgan shaxslar yoki oilalar tomonidan boshdan kechiriladigan kambag'allik holatini anglatadi.

Muallif mazkur ta'riflarni shakllantirish jarayonida hududiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tadqiqot olib borgan E.Glezer³⁸, G.Jonson³⁹, R.Bird⁴⁰ kabi xorijiy olimlarning ishlanmalarini o'rganib chiqqan va ularning mazkur muammoga nisbatan qarashlarini umumlashtirgan va tanqidiy o'rgangan.⁴¹

Shuningdek, mazkur bobda hududlarda kambag'allikni qisqartirishning o'ziga xos xususiyatlari va uslublari o'rganilgan va tahlil qilingan.

³⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³⁸ Glaeser, E. L. (2000). Reforming Poverty Alleviation: Lessons from Sages and Statecraft. Brookings Papers on Economic Activity, 2000(2), 217-274.

³⁹ Johnson, D. G. (1987). Regional Problems and Policies in Latin America. World Bank Publications.

⁴⁰ Bird, R. M. (1999). Fiscal decentralization and regional poverty. International Studies Program, Working Paper Series, Paper 99-07.

Turli mintaqalarda kambag'allikni kamaytirish uchun muhim tushuncha va vositalarni taklif qilish uchun xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ishida hududiy kambag'allikni qisqartirishda yuqori natijalarga erishgan Germaniya, Shvetsiya, Braziliya, Meksika, Keniya, Tanzaniya, Ruanda, Janubiy Afrika, Xitoy, Hindiston, Bangladesh davlatlarining qator tajribalari o'rganib chiqilgan va mamlakatimizdagi mavjud iqtisodiy mexanizmlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Qashqadaryo viloyati qishloq joylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo viloyatida tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, o'ziga xos xususiyatlarni baholash va uning sabablarini aniqlash, tumanlar va qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish omillari va imkoniyatlari tadqiq qilingan hamda so'rovnoma usuli asosida aniqlangan viloyatda kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahliliy natijalari keltirib o'tilgan.

So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Rasman mamlakat bo'yicha qabul qilingan mezonga muvofiq (minimal iste'mol xarajatlari) 2021-2023 yillarda O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17 foiz dan 11,0 foiz kamaydi. Viloyatda kambag'allik 2022 yilda 12,7 foiz va 2023 yilda 11,5 foiz bo'lib, nisbatan kamayish darajasi past bo'lgan. Hududning shaharlari va tumanlari kesimida kambag'allik darajasi rasman hisoblanmagan.

Shu sababli tadqiqotda tumanlarda kambag'allik darajasini aniqlashda bevosita joylarda uy xo'jaligida so'rovnoma o'tkazish usulidan, shuningdek ekspert baholash uslublaridan keng foydalanilgan.

Qishloq joylarida kambag'allikni shakllanishining 5 ta asosiy omili aniqlanib, ularning har birining ahamiyatlilik darajasi (koeffitsiyenti) hisoblangan. Daromad omili barcha aniqlangan kambag'al oilalar uchun asosiy meyor bo'lib, minimal iste'mol darajasi (daromad) orqali aniqlanganligi sababli eng yuqori koeffitsiyent berilgan, ya'ni 1,0. Qolgan omillar bo'yicha koeffitsiyentlar har bir tumanda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida belgilangan (1-jadval).

Asosiy omillar sifatida aholi daromadi, uy-joy holati, ta'lim va sog'liqni saqlash sifati, tomorqadan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Jumladan, barcha kambag'al oilalarni ichida eng yomon uy-joy holatiga ega bo'lganlarining ulushi aniqlangan. Viloyatda bu ulush 20 foizni tashkil etganligi sababli koeffitsiyent 0,2 qabul qilingan. Aynan shu usulda sog'liqni saqlash, ta'lim, tomorqadan foydalanish darajasiga qarab hisoblangan. Viloyat bo'yicha mos ravishda 0,3, 0,5 va 0,4 koeffitsiyent qabul qilingan. Koeffitsiyentlarni hisoblashda AHP (Analytic Hierarchy Process) statistik uslubidan foydalanilgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq joylari aholisining iqtisodiy-ijtimoiy farovonlik darajasi ko'rsatkichlari⁴²

(so'rovnoma natijalari, 2023 yil, koeffitsiyentda)

№	Hududlar	Aholi daromadlari darajasi	Uy-joy holati	Ta'lim sifati	Sog'liqni saqlash	Tomorqadan foydalanish
	Qashqadaryo viloyati	1	0,2	0,5	0,3	0,4
	Tumanlar					
1.	G'uzor	1	0,32	0,56	0,26	0,43
2.	Dehqonobod	1	0,35	0,68	0,27	0,31
3.	Qamashi	1	0,31	0,72	0,33	0,37
4.	Qarshi	1	0,21	0,44	0,24	0,33
5.	Koson	1	0,19	0,38	0,21	0,22
6.	Kitob	1	0,18	0,44	0,23	0,67
7.	Mirishkor	1	0,12	0,44	0,29	0,25
8.	Muborak	1	0,16	0,37	0,18	0,35
9.	Nishon	1	0,16	0,41	0,3	0,25
10.	Kasbi	1	0,15	0,39	0,29	0,37
11.	Ko'kdala	1	0,14	0,54	0,36	0,29
12.	Chiroqchi	1	0,16	0,48	0,37	0,38
13.	Shahrisabz	1	0,12	0,52	0,42	0,72
14.	Yakkabog'	1	0,23	0,63	0,45	0,66

Tumanlar kesimida kambag'allik darajasi Ko'kdala (15,6 foiz), Dehqonobod (15,5 foiz) va Chiroqchi (15,7 foiz) tumanlarida, eng past darajasi G'uzor (11,8 foiz), Kitob (12,0 foiz), Shahrisabz (11,5 foiz), Qarshi (11,7 foiz) va Muborak (12,1 foiz) tumanlarida kuzatilgan (2-jadval).

So'rovnoma natijalariga asosan tanlab olingan mezonlar (daromad, uy-joy holati, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash xizmatlari va tomorqadan foydalanish) tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlarni respondentlarni umumiy soniga bo'lgan holda va olingan natijalarni o'rtacha arifmetik ko'rsatkichini aniqlash orqali aniqlangan. So'rovnoma natijalariga ko'ra shaharlardagi kambag'allik darajasi 10,9 foiz, tuman qishloqlarida 13,8 foiz. Ushbu farq kambag'allikka qarshi kurashda asosiy e'tibor tuman qishloq joylariga qaratilishi kerakligini ko'rsatgan. Qishloq tumanlardagi kambag'allik darajasi o'rtasidagi tafovut (eng past va eng yuqori) 1,5 martani tashkil qilgan.

⁴² Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

Qashqadaryo viloyatida obyektiv kambag'allik darajasini shakllanishi⁴³

(so'rovnoma natijalari, 2023 yil, foiz)

№	Hududlar	Uy xo'jaliklari farovonlik darajasi		
		Nisbatan yuqori daromad (aholi jon boshiga daromad 2000 ming so'mdan yuqori)	O'rtacha daromad (aholi jon boshiga daromad 568 – 2000 ming so'mgacha)	Past daromad (aholi jon boshiga daromad 568 ming so'mdan past)
	Qashqadaryo viloyati	11,7	76,3	12,0
1.	Qarshi shahri	17,5	71,7	10,8
2.	Shaxrisabz shahri	12,7	76,3	11,0
	Tumanlar			
1.	G'uzor	12,3	75,9	11,8
2.	Dehqonobod	8,6	75,9	15,5
3.	Qamashi	8,4	76,8	14,8
4.	Qarshi	12,3	75,8	11,7
5.	Koson	14,4	73,4	12,2
6.	Kitob	14,2	73,8	12,0
7.	Mirishkor	13,1	73,9	13,0
8.	Muborak	13,8	74,1	12,1
9.	Nishon	8,0	79,0	12,0
10.	Kasbi	10,8	76,0	13,2
11.	Ko'kdala	7,1	77,3	15,6
12.	Chiroqchi	12,6	72,7	15,7
13.	Shahrisabz	15,3	73,2	11,5
14.	Yakkabog'	9,6	76,9	13,5

Muallif tomonidan aholining oylik xarajatlar sarfi o'rganilgan bo'lib, ma'lumotlar so'rovnoma natijalariga asosan shakllantirilgan (3- jadval).

So'rovnoma natijalariga asosan tumanlardagi aholi daromadlarini sarflanishiga ko'ra hududiy kambag'allik chegarasi aniqlangan. Bunda asosiy mezon sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oylik xarajatdan foydalanilgan. Ma'lum bo'lishicha, viloyatdagi istiqomat qiluvchi aholi daromadlarining o'rtacha 71 foiz qismi asosan oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish uchun sarflanadi (mamlakatda rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ushbu ko'rsatkich 67,8 foiz). Tumanlar kesimida ham o'zaro bu ko'rsatkich bo'yicha sezilarli darajada katta tafovut kuzatilmagan. Nooziq-ovqat va tovarlarga esa o'rtacha 19 foiz xarajat qilinganligi ma'lum bo'lsa, bevosita xizmatlarga 10 foiz mablag'ni sarflaganligi aniqlangan.

⁴³ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

3-jadval**Qashqadaryo viloyatida uy xo‘jaliklari daromadlarining asosiy sarfi⁴⁴**

(Qashqadaryo viloyati uy xo‘jaliklarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, 2023 yil)

№	Hududlar	Oylik xarajatlar tarkibi (foizda)				O‘rtacha oylik xarajat miqdori (ming so‘mda)
		Jami	Oziq-ovqatga	Nooziq-ovqat, tovarlarga	Xizmatlarga	
	Qashqadaryo viloyati	100	70,1	19,45	10,45	728,1
1.	Qarshi sh.	100	63,5	26,3	10,2	875
2.	Shaxrisabz sh.	100	69,1	21,2	9,7	762
	Tumanlar					
1.	G‘uzor	100	69,5	19,3	11,2	774
2.	Dehqonobod	100	73,2	17,2	9,6	662
3.	Qamashi	100	70,3	20,0	9,7	697
4.	Qarshi	100	68,7	19,1	12,2	729
5.	Koson	100	72,4	18,8	8,8	723
6.	Kitob	100	69,6	20,3	10,1	777
7.	Mirishkor	100	71,2	20,4	8,4	691
8.	Muborak	100	68,9	16,8	14,3	791
9.	Nishon	100	71,7	19,1	9,2	793
10.	Kasbi	100	68,1	21,3	10,6	728
11.	Ko‘kdala	100	75,6	17,3	7,1	586
12.	Chiroqchi	100	71,1	20,0	8,9	674
13.	Shahrisabz	100	67,8	16,3	15,9	737
14.	Yakkabog‘	100	71,2	17,8	11,0	705

Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, tamlarni o‘ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyati, aholi daromadlari, mehnat qilish imkoniyatlari, ijtimoiy soha rivoji shaharlarga nisbatan past ekanligi e’tirof etilgan. Tadqiqotda viloyatdagi kambag‘allik pasporti mamlakatdagi kambag‘allik pasporti bilan qiyosiy tahlil qilingan (4-jadval).

Kambag‘al oilalar mamlakat o‘rta ko‘rsatkichlariga nisbatan daromadni yetishmasligi, ishsizlik darajasi, nogironlik va surunkali kasalliklar mavjudligi, bolalarning ko‘pligi, inson kapitalining cheklanganligi, migratsiya darajasi nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi.

⁴⁴ Muallif tomonidan so‘rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

Kambag'allikni shakllanishining asosiy sabablari⁴⁵*(so'rovnomasi natijalari, 2023-yil, foiz)*

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Qashqadaryo viloyati
1.	Kerakli xarajatlar uchun oilaviy daromadning yetishmasligi	71,5	73,0
2.	Oila a'zolari orasida daromad keltiruvchi ishning mavjud emasligi, ya'ni ishsizlik	49,0	51,5
3.	Oilaviy vaziyat, jumladan nogironlik, surunkali kasallik, boquvchisini yo'qotilganligi, qariyalar va boshqalar	41,0	45,0
4.	Oilalarda 18 yoshgacha farzandlarning borligi	17,5	18,6
5.	Tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun inson kapitalini chegaralanganligi, jumladan bilimning yetishmasligi	19,0	22,0
6.	Oilada tashqi migrantlarning borligi	22,0	31,0

Viloyat tumanlarida kambag'allikni shakllanishida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi va sanoatning deyarli rivojlanmaganligi muhim o'ringa ega (sanoat va qishloq xo'jaligidagi daromadlarni farqi 2,0-2,5 martadan ko'proq). Taklif etilgan aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, sanoatda band bo'lganlar, sanoat korxonalarini soni, sanoat eksporti kabi indikatorlarni tumanlardagi kambag'allik darajasi bilan solishtirish asosida sanoat kambag'alligi koeffitsiyenti hisoblangan. Unga ko'ra eng yomon sanoat kambag'alligi koeffitsiyenti 2023 yilda Ko'kdala (0,14), Yakkabog' (0,30), Kasbi (0,30) va Chiroqchi (0,35) tumanlariga to'g'ri kelgan. Aynan ushbu tumanlarda kambag'allik darajasi ham yuqori bo'lgan. Mazkur tumanlarda kambag'allikka qarshi kurashishda kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish asosida aholi daromadlari va bandligini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Sanoat kambag'alligi koeffitsiyentini aniqlashda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlarning viloyat darajasidagi qiymatlarini tumanlar kesimidagi qiymatlarining o'zaro nisbatini aniqlash va natijalarning o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlash orqali aniqlangan (5-jadval).

Sanoat kambag'alligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlangan:

$$C_k = (I_p / i_p + I_e / i_e + I_s / i_s + I_x / i_x) / N \quad (1)$$

bu yerda,

C_k – sanoat kambag'alligi koeffitsiyenti;

I – viloyat ko'rsatkichi;

i – tumanning ko'rsatkichi;

p - aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;

⁴⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

e - sanoatda aholi bandligi;
 x - sanoat maxsulotlari eksporti hajmi;
 s - sanoat korxonalari soni;
 N – ko‘rsatkichlar soni.

5-jadval

**Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlarida sanoat kambag‘alligi
 koeffitsiyenti ⁴⁶
 (2023-yil)**

№		Aholi jon boshiga sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi	Sanoatda aholi bandligi	Sanoat korxonalari soni	Sanoat maxsulotlari eksporti hajmi	Sanoat kambag‘alligi koeffitsiyenti
	Qashqadaryo viloyati	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
1.	Qarshi shahri	1,60	0,97	0,19	0,13	0,72
2.	Shaxrisabz shahri	0,39	1,27	0,05	0,02	0,63
	Tumanlar					
1.	G‘uzor	2,17	0,69	0,05	0,14	0,76
2.	Dehqonobod	0,41	0,89	0,07	0,03	0,35
3.	Qamashi	0,71	1,15	0,05	0,03	0,48
4.	Qarshi	0,95	1,16	0,07	0,06	0,56
5.	Koson	0,49	1,55	0,08	0,04	0,54
6.	Kitob	0,65	0,77	0,07	0,05	0,39
7.	Mirishkor	0,69	0,79	0,06	0,03	0,35
8.	Muborak	1,09	0,57	0,03	0,03	0,68
9.	Nishon	2,24	1,64	0,04	0,31	0,56
10.	Kasbi	0,95	0,53	0,05	0,05	0,30
11.	Ko‘kdala	0,10	0,43	0,03	0,01	0,14
12.	Chiroqchi	0,36	1,02	0,06	0,03	0,30
13.	Shahrisabz	0,67	0,82	0,04	0,02	0,39
14.	Yakkabog‘	0,48	0,97	0,07	0,03	0,30

Eng past sanoat kambag‘alligi Ko‘kdala (0,14), Chiroqchi (0,30), Yakkabog‘ (0,30) va Dehqonobod tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Viloyatda kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan Dehqonobod tumanida bodomzorlar barpo qilish, kaliy zavodi shoxobchalarini tashkil qilish, Ko‘kdala tumanida chorvachilikni (echkichilik) va uning mahsulotlarini qayta ishlash asosida junni tayyorlash sexini qurish, Chiroqchi tumanida ipak yetishtirish va undan shoyi matolar ishlab chiqish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish orqali hududiy bandlikni rag‘batlantirish natijasida kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari mavjud ekanligi asoslangan. Tadqiqotda viloyat va tumanlarni asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar hajmlari, aholi daromadlari, bandlik, investitsiyalar hajmi, tadbirkorlik obyektlari soni, tomorqada yetishtirilgan

⁴⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mahsulotlar) bilan kambag‘allik o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik koeffitsiyenti aniqlangan (6-jadval).

6 -jadval

Qashqadaryo viloyati tumanlarini asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan kambag‘allik o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik koeffitsiyenti ⁴⁷ (2009-2023 y.)

№	Ko‘rsatkichlar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti
1.	Aholi jon boshiga umumiy daromadlari o‘shish sur‘ati	0,55
2.	Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati	0,45
3.	Aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati	0,21
4	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘shish sur‘ati	0,51
5.	Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘shish sur‘ati	0,79
6.	Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi	0,41
7.	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmi	0,62
8.	Bandlik darajasi	0,23
9.	Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘shish sur‘ati	0,19
10.	Kambag‘allik darajasi	1,0

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra eng yuqori bog‘liqlik tomorqa xo‘jaligi (0,79), aholi daromadlari (0,55), qishloq xo‘jaligi (0,51), sanoat (0,45), tadbirkorlik (0,41) sohalarida aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq joylarda kambag‘allikni qisqartirishning ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida viloyatda kambag‘allikni qisqartirishning strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu qismda 2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati tumanlarining drayver sohalari aniqlangan va prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Viloyat va tumanlarning o‘ziga xos salohiyati tumanlararo kambag‘allikni qisqartirish, qishloq joylarida sanoat korxonalarini hisobga olgan holda 2030 yilgacha kambag‘allik darajasini kamaytirishning maqsadli parametrlari ishlab chiqilgan. Prognozni amalga oshirishda ekonometrik modellardan keng foydalanilgan. Hisoblar uchta variantda amalga oshirilgan. Birinchi variant, viloyat va tumanlarda amalga oshirilayotgan islohotlarda tubdan o‘zgarishlar yuz bermasligi va jarayonlar bir tarzda davom etishi (ekstrapolyatsiya) ko‘zda tutilgan.

Viloyatda mavjud kambag‘al aholi qatlami (rasmiy manbalarda “kam ta‘minlanganlar” deb yuritiladi) ulushi rasmiy statistik ko‘rsatkichlari asosida prognoz ko‘rsatkichlari aniqlangan.

Prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004-2023 yillar mobaynida kambag‘allik darajasi ko‘rsatkichlari trend ma‘lumotlari o‘rganildi va statistik vaqt qatorlari uslubi orqali polinom regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqilgan. Mazkur usulda hududiy kambag‘allik darajasini o‘lchash, tahlil qilish va prognoz

⁴⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qilishda Martin Ravallionning qator ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Jumladan, M.Ravallionning "Qashshoqlikni taqqoslash: tushunchalar va usullar bo'yicha qo'llanma" (2001) kitobida polinom regressiya usulida prognoz modeli orqali kambag'allikni o'lchash va tahlil qilishning keng qamrovli sharhini, jumladan, vaqt qatorlarini prognozlash bo'yicha munozaralarni taqdim etadi. U kambag'allikni tahlil qilishda qo'llaniladigan turli metodologiya va formulalarni qamrab oladi⁴⁸.

Polinom regressiya usulida prognoz modeli tenglamasi quyidagi ko'rinishda:

$$y = a \cdot e^{-bx} \quad (2)$$

bu yerda

y - bog'liq o'zgaruvchi.

x - mustaqil o'zgaruvchi.

a - regressiya chizig'i uchun y o'qining kesishishi.

b - regressiya chizig'ining qiyaligi

e - (Eylar soni) tabiiy logarifmning asosini ifodalaydi.

